

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KORXONALARIDA SAMARADORLIKNI
OSHIRISHDA RAQAMLASHTIRISHNI RIVOJLANTIRISH

Umarova Hulkar Umidulloyevna

Osiyo xalqaro universiteti o'qituvchisi.

Xamidova Ra'no Karimovna

S1-MMT-24 guruh talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15512342>

Annotasiya. Mazkur maqolada korxonalarda raqamli texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qilishi hamda yangi texnologiyalar yordamida mahsulotlar ishlab chiqarish, ta'minot zanjiri, moliyaviy hisobotlar va boshqa jarayonlar avtomatik tarzda boshqarilishi afzalliklari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Raqamlashtirish, samaradorlik, sanoat raqamlashtirish, raqamli texnologiyalar, innovatsiyalar, avtomatlashtirish.

Kirish.

Hozirgi zamon global iqtisodiy rivojlanish sharoitida raqamli texnologiyalar korxonalar samaradorligini oshirishning asosiy omillaridan biriga aylandi. O'zbekiston Respublikasi ham bu jarayondan chetda qolmayapti. Prezident Shavkat Mirziyoyevning tashabbuslari bilan so'nggi yillarda mamlakatda raqamlashtirish jarayonlari jadallik bilan olib borilmoqda. Bu esa korxonalarda ish unumdorligini oshirish, resurslarni tejash, inson omiliga bog'liq xatoliklarni kamaytirish va raqobatbardoshlikni ta'minlashda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

Bugungi raqobatbardosh va tezkor iqtisodiy muhitda O'zbekiston Respublikasi korxonalarining samaradorligini oshirish uchun raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish dolzarb masalaga aylanmoqda. Zamonaviy texnologiyalar jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan davrda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan korxonalarining raqobatbardoshligini ta'minlashda raqamlashtirishning roli tobora ortib bormoqda va bu holat ularning ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning muhim omili bo'lib sanaladi. Shu bois, davlatimizda sanoat tarmoqlarini raqamlashtirish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va iqtisodiyotni modernizatsiya qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Samaradorlik — bu mavjud resurslardan ya'ni, vaqt, mablag', mehnat, materiallar va boshqalardan oqilona va maqsadga muvofiq foydalanib, maksimal natijaga erishish darajasidir.

Korxonalarda samaradorlikni oshirishda raqamlashtirishning bir qator afzalliklari mavjud. Ya'ni texnologiyalar orqali inson omilini kamaytirib, ish tezligini oshirish va xatoliklarni kamaytirish kabi afzalliklarga egadir.

Raqamlashtirish an'anaviy ish jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida avtomatlashtirish va optimallashtirishdir. Uning quyidagi afzalliklarini ko'rishimiz mumkin:

1. Ish jarayonlarini tezlashtiradi: Hujjat aylanishi, hisobotlar, hisob-kitoblar avtomatlashtiriladi.

2. Xatoliklar kamayadi: Inson omiliga bog'liq xatolarni kamaytirish orqali sifat nazorati kuchayadi.

3. Resurslar tejab qoladi: Mablag', vaqt, ishchi kuchi samarali foydalaniladi.

4. Shaffoflik oshadi: Korxonalarda korrupsiyaviy xavf kamayadi.

5. Raqobatbardoshlik kuchayadi: Zamonaviy texnologiyalar orqali ishlab chiqarish hajmi va sifati ortadi.

Yurtimizdada raqamlashtirish jarayonlarini amalga oshirishda bir nechta asosiy yo'nalishlar mavjud. Quyida ulardan bir nechtasini ko'rishimiz mumkin:

1. Elektron hukumat tizimi, bunda elektron hukumatni rivojlantirish orqali davlat xizmatlari, soliq va bojxona ishlarini raqamli shaklga o'tkazish, fuqarolar va tadbirkorlar uchun xizmatlarni tez va shaffof tarzda taqdim etish mumkin. My.gov.uz platformasi orqali fuqarolar va korxonalar turli xizmatlarni elektron tarzda olishlari mumkin.

2. Sanoatni raqamlashtirish, bunda O'zbekistonning sanoat korxonalari raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali o'z ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtiradi. Xususan, smart texnologiyalar, IoT (Internet of Things) va ERP tizimlari kabi ilg'or tizimlar orqali korxonalar ishlab chiqarish samaradorligini oshirishi mumkin. Misol uchun, neft-gaz, kimyo va yengil sanoat sohalarida raqamlashtirish jarayonlari muhim ahamiyat kasb etmoqda.

3. Qishloq xo'jaligida raqamli texnologiyalar, ya'ni qishloq xo'jaligida dronlar, GPS va IoT texnologiyalari yordamida yerlarni monitoring qilish, sug'orish tizimlarini avtomatlashtirish, hosildorlikni prognoz qilish kabi jarayonlar amalga oshirilmoqda. Bu, o'z navbatida, resurslardan samarali foydalanishni ta'minlaydi va ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi.

4. Bank va moliya sektorlarida mamlakatimiz banklari va moliya tashkilotlari raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilamoqda. Mobil bank xizmatlari, raqamli to'lov tizimlari va blokcheyn texnologiyalari orqali naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimi rivojlanmoqda.

Raqamlashtirishni joriy etish orqali korxonalarda samaradorlikni oshirishning bir nechta asosiy omillari mavjud:

1. Ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirishda raqamli texnologiyalar yordamida ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish mumkin. Masalan, ishlab chiqarish liniyalarini monitoring qilish va nazorat qilish uchun IoT texnologiyalaridan foydalanish ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi.

2. Moliya va hisob-kitoblarni boshqarishda moliyaviy boshqaruvni raqamlashtirish orqali korxonalar o'z daromad va xarajatlarini aniq va shaffof boshqarish imkoniyatiga ega bo'ladi. ERP tizimlari yordamida bu jarayonlar avtomatik tarzda boshqariladi, bu esa vaqt va xarajatlarni tejashga imkon yaratadi.

3. Ta'minot zanjirini boshqarishda korxonalarning ta'minot zanjiri va logistika jarayonlarini raqamlashtirish orqali etkazib berish va omborxona boshqaruvi samaradorligini oshirish mumkin. Bu, o'z navbatida, xarajatlarni kamaytiradi va mahsulotlarni iste'molchilarga tezda yetkazib berishni ta'minlaydi.

4. Inson resurslaridan samarali foydalanishda raqamli tizimlar yordamida korxonalarda xodimlar faoliyatini monitoring qilish, ishlash samaradorligini baholash va ma'lumotlarni tahlil qilish mumkin. Bu jarayonlarni avtomatlashtirish orqali inson resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, davlatimiz korxonalarida samaradorlikni oshirishda raqamlashtirishning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Raqamli texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, resurslardan samarali foydalanish va raqobatbardoshlikni ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda. Mamlakatda raqamlashtirish jarayonlarini tezlashtirish va kengaytirish orqali O'zbekiston global iqtisodiyotda yanada muvaffaqiyatli ishtirok etishi mumkin. Shuningdek, raqamlashtirish jarayonini amalga oshirishda O'zbekistonda hali ba'zi muammolar mavjud. Masalan:

-Raqamli savodxonlikning pastligi: Aksariyat korxonalarda raqamli savodxonlik past, bu esa raqamli tizimlarni joriy qilishda qiyinchiliklar yaratadi.

-Texnologiyalarning qimmatligi: Ba'zi kichik va o'rta korxonalar uchun yangi texnologiyalarni joriy etish qimmat bo'lishi mumkin.

-Infratuzilmaning yetishmasligi: Ba'zi hududlarda Internet tarmog'i va boshqa raqamli infratuzilma yetarli emas. Shu kabi kamchiliklarni bartaraf etish uchun quyidagi takliflarni aytib o'tsak maqsadga muvofiq bo'ladi:

1. Raqamli savodxonlikni oshirish uchun ta'lim dasturlari va treninglar o'tkazish.

2.Davlat tomonidan imtiyozlar va subsidiya taqdim etish.

3.Texnologik infratuzilmani rivojlantirish va yuqori tezlikdagi Internetga kirishni kengaytirish..

Keltirilgan takliflar amalda qo'llash orqali korxonalarda raqamlashtirish muhiti yaxshilanadi va iqtisodiyotning turli sohalarida o'sish va samaradorlik ko'rsatkichlari sur'ati oshadi.

Umuman olganda, raqamlashtirishning o'zaro bog'langan jarayonlarini joriy etish va rivojlantirish O'zbekiston iqtisodiyotining global raqobatbardoshligini oshirish, sanoatni modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim vositadir. Bu jarayonlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish orqali O'zbekiston nafaqat raqamli iqtisodiyotga, balki yuksak iqtisodiy rivojlanishga erishishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qudratova, G. M. (2025). TEXNOLOGIK PARKLARNING MINTAQA INNOVATSION RIVOJLANISHINI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI. *YANGI O'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(8), 170-178.
2. Sodiqova, N. (2025). IQTISODIYOT FANLARINI O'QITISHDA TALABALAR TEXNIK TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING AMALDAGI HOLATI VA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI. " *ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ АКМЕОЛОГИЯ*" *международный научно-методический журнал*, 2(19).
3. Bahodirovich, K. B. (2025, April). STRUCTURE OF THE CASH FLOWS STATEMENT. In *CONFERENCE OF MODERN SCIENCE & PEDAGOGY* (Vol. 1, No. 1, pp. 325-330).
4. Алимова, Ш. А. (2025). УСТОЙЧИВЫЕ ЦЕПОЧКИ ПОСТАВОК: ОТ ТРЕНДА К НЕОБХОДИМОСТИ РАСШИРЕННАЯ ВЕРСИЯ. *Modern Science and Research*, 4(5), 76-81.
5. Toshov, M. H. (2025). SANOAT KORXONALARIDA MEHNATGA HAQ TO'LASH TIZIMINI BOSHQARISH. *Modern Science and Research*, 4(4).
6. Azimov, B. (2025). METHODS AND MODELS FOR ASSESSING THE SOCIO-ECONOMIC EFFICIENCY OF REGIONAL INNOVATION INFRASTRUCTURE. *International Journal of Artificial Intelligence*, 1(3), 685-691.

7. Ikromov, E. I., & Safarova, J. (2025). O'ZBEKISTONDA YASHIL TADBIRKORLIKNI HUDUDLARDA RIVOJLANTIRISHI ISTIQBOLLARI. *Modern Science and Research*, 4(4), 421-428.
8. Raxmonqulova, N. O. (2025). DEVELOPMENT OF THE DIGITAL ECONOMY ON A GLOBAL SCALE AND THE EXPERIENCE OF COUNTRIES. *SHOKH LIBRARY*.
9. Shadiyev, A. X. (2025). MINTAQANING IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANISHINI BOSHQARISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(7), 145-150.
10. Naimova, N. (2025). THE IMPACT OF GLOBALIZATION ON MODERN ECONOMIC PROFESSIONS. *Journal of Multidisciplinary Sciences and Innovations*, 1(2), 153-155.
11. Bazarova, M. (2025). FEATURES OF ASSESSING THE EFFECTIVENESS OF INNOVATION RISK MANAGEMENT OF AN EDUCATIONAL ORGANIZATION IN THE PROCESS OF DIGITAL TRANSFORMATION OF ACTIVITIES. *Journal of Multidisciplinary Sciences and Innovations*, 1(2), 161-164.
12. Jumayeva, Z. (2025). THE ROLE OF MICROECONOMIC ANALYSIS IN ENHANCING ECONOMIC EFFICIENCY THROUGH MARKET EQUILIBRIUM ANALYSIS. *International Journal of Artificial Intelligence*, 1(3), 634-637.
13. Bobojonova, M. (2025). GREEN ENTREPRENEURSHIP IN UZBEKISTAN AND ITS OPPORTUNITIES. *International Journal of Artificial Intelligence*, 1(3), 592-595.
14. Jumayeva, Z. (2025). THE FORMATION OF THE GREEN ECONOMY CONCEPT, STAGES OF DEVELOPMENT AND ITS RELEVANCE. *International Journal of Artificial Intelligence*, 1(3), 262-266.
15. Ibragimov, A. (2025). TAX POLICY AND IMPACT ON ECONOMIC DEVELOPMENT. *International Journal of Artificial Intelligence*, 1(3), 259-261.
16. Djurayeva, M. (2025). ISSUES OF SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP DEVELOPMENT. *International Journal of Artificial Intelligence*, 1(3), 596-598.
17. Umarova, H. (2025). RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA KORXONA RISKLARINI BOSHQARISH VA BAHOLASH AMALIYOTI TAHLILI. *Modern Science and Research*, 4(5), 158-161.

18. Aslanova, D. (2025). CHALLENGES OF IMPLEMENTING MODERN MANAGEMENT PRINCIPLES IN THE TOURISM INDUSTRY. *Journal of Multidisciplinary Sciences and Innovations*, 1(2), 119-121.
19. Rajabova, D. (2025). SPECIFIC FEATURES AND FACTORS OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF THE INNOVATIVE ENVIRONMENT IN INDUSTRIAL ENTERPRISES. *Journal of Applied Science and Social Science*, 1(2), 474-479.
20. Игамова, Ш. З. (2024). МЕТОДИЧЕСКИЕ РЕКОМЕНДАЦИИ ПО ФОРМИРОВАНИЮ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО МЕХАНИЗМА ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ СТРОИТЕЛЬНЫХ МАТЕРИАЛОВ. *Gospodarka i Innowacje*, 43, 335-340.
21. Akramova, O. (2025). FOREIGN COUNTRIES IN EXPERIENCE INVESTMENT ATTRACTIVENESS INCREASE MECHANISMS AND UZBEKISTAN IN PRACTICE USE OPPORTUNITIES. *Journal of Multidisciplinary Sciences and Innovations*, 1(1), 395-398.
22. Jumayev, B. (2025). BIG DATA: CUSTOMER CREDIT ANALYSIS USING DIGITAL BANKING DATABASE. *International Journal of Artificial Intelligence*, 1(2), 1056-1059.
23. Gafarova, D. (2025). INNOVATION POLICY OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN: ACHIEVEMENTS AND PROSPECTS. *Journal of Multidisciplinary Sciences and Innovations*, 1(2), 165-167.
24. Raximova, L. (2025). DIRECTIONS AND PRIORITY FEATURES OF THE TRANSITION TO THE "GREEN ECONOMY". *Journal of Multidisciplinary Sciences and Innovations*, 1(2), 156-160.